

"CHET TILLARINI O'QITISHDA XORIJIY INNOVATSION G'OYA VA TEXNOLOGIYALARNI YANGI O'ZBEKISTONDA TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI"

Axmadova Durdona Axror qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Yangilani o'qitish metodlariga ko'ra O'zbekistonga yangi kirib kelgan tizimli o'quv metodlari hamda innovatsion texnologiyalarni keng targ'ib etish bo'yicha olib borilyotgan ilg'or g'oya va metodlar. Shuningdek ularni amalyotga tatbiq etish chora tadbirlari.

Kalit so'zlar: texnologiya, globallashuv, metod, rivojlanish, kredit- modul.

Hozirda globallashgan davrda ko'plab OTM talabalari kredit-modul tizimida o'qib ta'lim olishmoqda. Bunday o'qitish tizimining ko'plab afzalliklari bo'lganligi sababli joriy yillarda, bizning rivojlanib kelyotgan, yangilanyotgan O'zbekistonda ham fan-ta'limga hamda yoshlarning bilim ko'nikmalarini rivojlantirishga bog'liq ko'plab tizimli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa chet tillarini kredit-modul tizimi orqali o'granish va o'rgatish ko'plab tajriba hamda malakani hosil qiladi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son hamda "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlari ham belgilandi. Albatta bu biz uchun juda katta imkoniyat hisoblanadi. Prezidentimizning asosan yoshlar uchun yaratgan imkoniyatlari ham bizning kelajagimizning porloq qilish uchun hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, bir bosqich desam mobolag'a bo'lmaydi. Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash maqsadida birlamchi xarajatlarni amalga oshirgandan so'ng bo'shab qolayotgan to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushgan budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qaroriga ko'ra oliy talim muassasalari to'liq kredit modul tizimiga o'tishi joriy qilindi.

Ta'limning kredit-modul tizimi o'zi nima? Modul – bu alohida individual o'quv fani. O'zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo'lib,

ta'lim oluvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishni nazarda tutadi. Kredit-modul o'qitish tizimi esa, har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi. Ushbu o'qitish tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi.

Talaba nazorat uchun qo'yilgan talablarning kamida 60 % ni bajarsa ijobiy baholanadi. Masalan ma'ruza mashg'uloti nazorati savollariga kamida 60 % to'g'ri javob bergan bo'lsa, lekin KI, KL, HGI larini 100 % bajarishi shart.

2. KI, KL, HGI larini bajarmagan talaba Yakuniy nazorat topshirishga kiritilmaydi va qarzdor hisoblanadi.

3. Dastlabki baholashda fandan talabaning olgan baholarini rasmiylashtirish uchun fakultet dekanatlarida dastlabki baholash qaydnomasi tashkil etiladi. Unda barcha nazoratlar bo'yicha baholar qo'yiladi va o'rtachasi aniqlanadi, o'rtacha baho ijobiy bo'lsa Yakuniy nazoratga ruxsat beriladi. Birta nazoratdan qoniqarsiz baho olganda ham o'rtacha baho hisoblanmaydi va talaba Yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin. Kredit birliklari tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, bu kredit dasturlarini uning tarkibiy qismlari, ya'ni modullar, modullar bloklari, kurslar va boshqalarga biriktirish orqali ta'lim dasturlarini tavsiflashning tizimli usulidir.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- * o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- * bitta fan, kurs (kredit)ning- qiymatini aniqlash;
- * talabalar bilimini reyting ball asosida baholash;
- * talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon.
- * ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;

Hozirda bu tizimning joriy qilingani O'zbekiston Respublikasida oqiydigan talabalar uchun rivojlanishning yana bir bosqichi deyish mumkin. Hamda chet tillarini o'rganishga bo'lgan imkoniyatlarni kengaytiradi. Bu tizim orqali talabalar

mas'uliyatli hamda fanlarni o'zlashtirishga e'tiborli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu tizim orqali talaba darsdan tashqari boshqa kerakli barcha qo'shimcha malumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Imkoniyatlari keng bu tizim talaba uchun chet tillarini o'rganishda ko'proq foydali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

- 1.<https://lex.uz/ru/docs/-5193564#-5199725>
- 2.<http://nspi.uz/?p=8093>
- 3.<https://daryo.uz/2020/08/13/ozbekistonda-kredit-modul-tizimiga-otilsa-qanday-ozgarishlar-sodir-boladi/>
- 4.<https://azkurs.org/kredit-modul-tizimida-fanlardan-talabalar-bilimini-baholash-me.html>

